

Bolalar Muqaddas Kitobi

Tasvirlab beradi

Daryodan
topilgan
Shahzoda



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:
M. Maillot; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
M. Maillot; Sarah S; Alastair Paterson

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

©2021 Bible for Children, Inc.

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Shunday qilib Yusuf 110
yil yashab vafot etdi.
Uni mo'miyolab, Misrda
tobutga solib ko'mdilar.


Misrliklar
esa
motam
tutib
yig'I
qildilar.




Hudovand Yusufni
mamlakatni ochlikdan
saqlash uchun qo'lladi,
Yusuf juda yahshi
boshqaruvchi edi.



Yusuf vafot etgandan keyin ko'p yillar o'tdi,
Yusufning halqi isroilliklar Misrda qudratli halqga
aylandilar, ...



... shuning uchun Misr podshohi Fir'avn isroilliklardan qo'rqa boshladi, va ularning yanada kuchli bo'lib ketmasligi uchun, isroil halqini qul qilib qo'ydi.



Fir'avn ularga nisbatan shavqatsiz, zolim edi. U isroilliklarni buyuk shahar qursih uchun qullardek ishlatar edi. Lekin shu qiyinchiliklarga qaramasdan isroil halqi ko'payib kuchayib borar edi.




Bir kuni Fir'avn: "isroilliklarning tug'ilgan barcha chaqaloqlari qilichdan o'tkazilsin" - degan qo'rqinchli farmon chiqardi. Bu Yovuz podshoh isroilliklarni kamaytirish uchun, hatto chaqaloqlarni o'ldirishga qaror qildi.



Noiloj bo'lgan bir oila tug'ilgan chaqaloqning hayotini asrash uchun, bolani savatga solib Nil daryosiga oqizib yubordilar.



Kichkina savat esa suvda suzib, qamishlar orasiga kelib to'htadi. Bechora chaqaloq, u bilan nima bo'ladi endi?



Chaqaloqning onasi, uzoqdan savatda yotgan kichkina chaqaloq bilan nima bo'lishini kuzatar edi.



To'satdan Fir'avnning qizi va uning
hizmatkorlari daryoga cho'milgani
chiqishdi. Ular qamishzorlar
orasida suvda suzib yurgan
kichkina savatni ko'rib qoldilar.



Ular bir-birlariga - "Bu savatga qaranglar, uning ichida nima bor ekan?" - deb o'zlaricha hayron qolishdi. Fir'avnning qizi o'z xizmatkoriga savatni olib kelishni buyurdi. U savatni ochgandan keyin chaqaloq yig'lashni boshladi. "Bu yahudiylarning bolasi bo'lsa kerak" -deb hayqirdi Fir'avnning qizi.



Fir'avning qizi chaqaloqni olib: "Bechora go'dakgina. Qanday chiroylisan" - dedi. Chaqaloq malikaga yoqdi.



Hudovand chaqaloqning onasiga donolik bergan bo'lsa kerak, chunki chaqaloq to'g'ridan to'g'ri malikaning qo'liga borib tushdi. Malika esa chaqaloqni sut-emizib parvarish qilish uchun yahudiy ayolni olib keldi.



Yahudiy ayol malikaning oldiga kelib ta'zim qildi.



Fir'avning qizi ayolga: "sen mana bu chaqaloqni emizib parvarish qilasan, men esa senga bu hizmating uchun pul to'layman. Unga Muso deb nom qo'yasan" - dedi. Muso so'zining ma'nosi "suvda topilga" demakdir.



Shunday qilib Muso, yahudiy oilada ulg'ayib, Hudojo'y bo'lib o'sdi. Keyinchalik u Fir'avning qizi malika bilan bir saroyda yashadi. Musoning hayotini saqlab qolgan Hudovandning, chaqaloq Muso uchun katta rejalari bor edi.



Daryodan topilgan Shahzoda

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Chiqish 2

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:

Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

